


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI




O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA (HINDISTON) ADABIYOTI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	–San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230000	– Tillar
Ta’lim yo‘nalishlari:	60230100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)

Toshkent – 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i  N.B. Xodjaeva

ARM boshlig'i

 M. Yuldasheva

Fan/modul kodi MA15618	O'quv yili 2027/2028	Semestr 5, 6	YECTS – Kreditlar 8,10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8,10
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		O'RGANILAYOTGAN MINTAQ (HINDISTON) ADABIYOTI	216	324
2.	<p style="text-align: center;">1. Fanning mazmuni</p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talabalarga Hindiston adabiyotining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda Hindiston tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, Hindiston adabiyoti nazariyasi va amaliyotiga oid bilimlarni o'zlashtirish orqali yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p><i>Fanning vazifasi</i> - olti semestrda mo'ljallangan kurslar mobaynida talabalarda Hindiston tili adabiyotiga oid asosiy ma'lumotlarni berish bilan birga, tilning uslublari, adabiyotshunoslikka oid jihatlarini tahlil qilish, nazariy jihatdan anglab olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - yuqorida sanab o'tilgan sohalardagi ilmiy tadqiqotlardan xabardor bo'lishi, ularni qo'llay bilishi; - Hindiston adabiyotining turli dolzarb masalalariga oid asarlarni tadqiq eta olishi; - hamda adabiy matnlar asosida bunday hodisalarni tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi. <p>Xorij tajribasiga muvofiqi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Laiden universitety (QS 41, THE 74) hamda Al-Farobiy nomli Qozog'iston davlat universiteti (Al-Farabi Kazakh National University QS 150) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>http://oue.fas.harvard.edu/sites/projects.iq.harvard.edu/files/oue/files/current_master_program.pdf</p> <p>https://univer.kaznu.kz/teacher/umkdpack/edit/88981/2025/1/</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">2.1 Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Qadimiy Hindiston subkontinentdagi Adabiy-tarixiy jarayon. Sanskrit tilidagi adabiyot. Vedalar Ilk Adabiy yogorlik sifatida. Vedalarning tarkibiy qismlari, ularning mazmunida aks etgan qadimiy kishilar tafakkuri va</p>			

olam haqidagi ilk qarashlar. Vedalar tarkibida shakllangan ilk nazm.

2-mavzu: Qadimgi hind eposlari

Qadimgi hind eposi. "Mahabharata" - Bharata avlodlarining buyuk jangi. Kurukshetra - dxarma maydoni. "Bhagavad Gita" - "Ilohiy qo'shiq" - hinduizmning muqaddas kitobi. "Ramayana" dostoni.

3-mavzu: "Mahabharata" eposi

Hind jamiyatiga yangicha e'tiqod va yangicha boshqaruv tizimining kirib kelishi, sanskrit adabiyotida 2-yirik epos "Mahabharata", eposning syujeti, g'oyaviy yo'nalishi, personajlari, asarda aks etgan tarixiy shaxslar va voqealar, eposning keyingi davr yozma adabiyoti rivojida tutgan o'rni.

4-mavzu: Buddaviylik adabiyoti.

Hind jamiyatida yangi mafkuraning shakllanishi, yangi adabiy meros, adabiyotda yangi g'oya – buddaviylik g'oyasi. Hind kastachilik tizimiga ilk zarba. Jatakalar. Buddist va jayn adabiyotining mavzulari va qahramonlari

5-mavzu: Sanskrit adabiyoti va buddaviylik.

Sanskrit adabiyotiga yangi buddaviylik goyalarining kirib kelishi. Sanskrit adabiyotida buddaviy g'oyalar. Ashvaghosha buddaviy g'oyalarni targ'ib qilgan brahmat shoir. Uning Sanskrit tilidagi asarlarida buddaviylik goyalari.

6-mavzu: Qadimgi hind ertak va masallari.

Hind xalq og'zaki ijodi. Folklor asarlarning yaratilishi. Ushbu asarlarning sanskritcha va boshqa hind tillardagi nusxalari. Sanskrit adabiyotining yakuni. Folklor asarlar mazmunida aks etgan hind xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlar, yashash tarzi haqidagi ma'lumotlar.

7-mavzu: Panchantra va Hitopadesha masallari

Sanskrit tilidagi Panchantra va Hitopadesha masallari, ularning mazmunida aks etgan hind milliy qadriyatlari, xalq qahramonoari, milliy urf-odatlar va an'analar. Masallarning goyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi, masalalarning turli davr nusxalari va tarjimalari.

8-mavzu: Vetalo-panchovinshati va Sinhasanadvatrinshati ertaklari

Hind xalqining sevimli, adolatli shoh nomi bilan tarixda qolgan Vikramaditya va u bilan bog'liq asarlar. Vetalo-panchovinshati va Sinhasanadvatrinshati ertaklarning mazmun- mohiyati, goyaviy yonalishi, obrazlar tizimi va tarjimalari.

9-mavzu: Qadimgi hind dramaturgiyasi

"Natyashastra" asari. Kavyaning tarmoqlari: gadya (nasr), padya (she'r), natya (drama), katha (hikoya), akyaika (hagiografiya, hagiografik

adabiyot).

10-mavzu: Bhasa va Shudraka ilk dramaturlar

Kech klassik davr. Klassik drama. Bxasa (milodiy 3-4-asrlar): Hayot va ish. Shudraka ilk dramatic asarlar, ularning qadimiy sanskrit eposlari bilan bog'liqligi. Dramalarda aks etgan qadimiy Hindiston xalqining milliy qadriyatlari, xalq xayoti va obrazlar tizimi.

11-mavzu: Kalidasa yetuk dramaturg

Sanskrit dramaturgiyasini cho'qqiga olib chiqqan dramaturg Kalidasa. Uning qalamiga mansub dramalar va ularning Sanskrit eposlari bilan bog'liqligi. Dramalarning syujet va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi. Kalidasa dramalaridagi ko'ptillilik.

12-mavzu: Roman janrining shakllanishi. Dandin ijodi.

Sanskrit adabiyotida ilk roman. Roman janri asoschisi Dandin va uning birinchi romani. Qadimgi hind adabiyotida ilk roman janrining shakllanishi. Dandin ijodi va uning "10 shahzoda sarguzashti" romani. Bhartrixari va uning asarlari.

13-mavzu: Hindistonda urdu adabiyoti

Hindistonga islom dinining kirib kelishi, urdu tili va adabiyotining shakllanishi. Urdu adabiyotining maktablari, g'azal, qit'a, masnavi kabi she'riy janrlarning rivojlanishi

14-mavzu: Hindistonda forsiyazabon adabiyot

Hindistonda shakllangan forsiyazabon adabiyot. Fors adabiyotining hind adabiyotiga ta'siri: yangi janrlar va obrazlarning kirib kelishi. Amir Xuspav Dehlaviy ijodi.

15-mavzu: Boburiylar davri adabiyoti

Boburiylar davridagi adabiy tarixiy jarayon. Ko'pdinlilik va ko'ptillilik. Turli (Hindavi, urdu, forsiy va turkey) tillaridagi adabiy meros. Saroy va xalq adabiyoti.

16-mavzu: Bhakti adabiyoti. Sagun va nirgun bhakti.

O'rta asr adabiyotining mafkuraviy olami va bhakti adabiyotining rivojlanishi. Nirgun sagun bhakti yo'nalishi. Bhakt shoirlar ijodi orqali xalqchil adabiyotning rivojlanishi. Bhaktlar obrazining yetakchi obraz sifatida shakllanishi.

17-mavzu: Nirgunbhakti vakili Kabir

Kabir ijodi, uning she'riyatining goyaviy yo'nalishi, Kabir asarlarida nirgun bhaktining falsafiy va ijtimoiy g'oyalari. Kabirning inqilobiy va tanqidiy

she'rlari. Kabir ijodining jahob adabiyotidagi ahamiyati.

18-mavzu: Krishnabhakti she'riyati, Ashtachhap shoirlari
Krishnabhakti adabiyotining yetuk namoyanlari, "Ashtachhap"
shoirlarining ijodiy merosi. Bhakti she'riyatida ma'bud Krishna va
Mahabharata eposi personajlari, o'rta asr she'riyati va she'riy janrlar.

19-mavzu: Krishnabhakt shoirlar: Surdas va Mirabai
Surdas va Mirabai she'riyatida bhakti g'oyalari. Surdas va Mirabai
she'riyatida Mahabharata eposi personajlarining qayta yaratilishi.

20-mavzu: Rambhakt shoir Tulsidas.
Rambhakti she'riyatining rivoji, Tulsidas va uning avadhi tilidagi
"Ramacharitmanasa" asari. Asarning o'rta asr adabiyoti rivojida tutgan
o'rni.

21-mavzu: Bhaktining yangi yo'nalishlari
Gurubhakt Rajjab, Ekla chalo yo'li vakili Ananddhan, Sham nuri
gadosi Ramalingam ijodida bhakti g'oyalari.

22-mavzu: O'rta asr braj nasri va varta janri
Braj tilida ilk nasr. "Chaurasi veyshnavan ki varta" nasriy asari va varta
nasriy janrining vujudga kelishi. Asarda syujet va kompozitsiya, bhaktlar
obrazida bhakti g'oyalari.

23-mavzu: Hind tasavvuf adabiyoti
Tasavvuf adabiyotining shakllanish asoslari, ushbu adabiyotni yaratgan
mutasavvuf adiblar, tasavvuf va bhakti adabiyotidagi hamohanglik,
tasavvuf adabiyotining Hindiston adabiyoti rivojida tutgan o'rni.

24-mavzu: Janubiy Hindiston adabiyoti. Telugu va tamil adabiyoti.
Ushbu adabiyotlarning rivojlanish bosqichlari, nasr va nazm. XX asr
adabiyotining taniqli vakillari va ularning asarlari.

25-mavzu: Yangi davr hind adabiyotini davriylash masalasi. Yangi
davr, eng yangi davr tushunchasi va bosqichlari.

26-mavzu: So'nggi ma'rifatparvarlik davri adabiyoti. Bharatendu
Xarishchandra asarlari (1850 -1885) - hindi adabiyotida marifatparvarlik
adabiyoti vakili.

27-mavzu: Ram Mohan Roy (1772 -1833) faoliyati. Ilk
ma'rifatparvarlik g'oyalarining jamiyatda shakllanishi. Ram Mohan Roy
ijodida ijtimoiy qoloqlik va gariblik masalalari.

28-mavzu: Mirza G'olib (1797-1869) she'riyati. Golib asarlarida hind jamiyati tasviri, Golib asarlarining o'ziga xosligi va betakrorligi.

29- mavzu: Mirza G'olib xatlari Hindiston nasrining asosi sifatida. Golib xatlarida shoirning dunyoqarashi va davr muammolarining in'ikosi.

30- mavzu: Said Ahmad Xon (1817 -1898) ijodiy merosi. Adib asarlarining g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar trizimi va ularda davr muammolarining aks etishi.

31-mavzu: Ma'rifatparvarlik shoiri Mavlono Ozod (1829-1910) ijodi. Ma'rifatparvarlikni jamiyatga olib kirgan Saix Axmad Xon faoliyati ta'sirida ijol qilgan Mavlono Ozod she'riyatida ma'rifatparvarlik g'oyalarning badiiy in'ikosi..

32-mavzu: Altaf Xusayn Xoli (1837-1914) she'riyatida ma'rifatparvarlik g'oyalari. Said Axmad Xon dunyoqarashining Altaf she'riyatiga ta'siri. Adib asarlarida davr muammolarining badiiy in'ikosi.

33- mavzu: Nasixatli roman va Nazir Ahmad ijodi (1836 -1912). Nazir Ahmad ijodida hind xalqi xayotining ijtimoiy va ma'anaviy muammolari. Davr ruhining Nazir Ahmad asarlarida aks etishi. Mavzular xilma xilligi va xayotni realistik tasviridagi adibning mahorati.

34- mavzu: Ratannatx Sarshar romannavis (1847-1902). Sarshar romanlarining hindi nasri rivojida tutgan o'rni. Romanlarda ko'tarilgan yetakchi mavzular, obrazlar, til va uslub masalalari. Adibning „Fasanaye Azad“ romani

35 - mavzu: Mirza Rusva (1858-1931) va uning "Umraojan" romani. Romanda 19chi asr oxiri hind jamiyatidagi ayollarning huquqi va taqdiri masalasi

36 - mavzu: Hindiston adabiyotiga G'arb va Rus adabiyotining ta'sirini yozuvchi va shoirlarning asarlari orqali o'rganish.

37- mavzu: Nasihatli roman: Nazeer Ahmad ijodi (1836 - 1912). Adib romanlarida davr tavsifi, obrazlar tizimi va goyaviy yo'nalishi.

38-mavzu: Muhammad Iqbol yashagan davr tavsifi. Muhammad Iqbol she'riyati. Shoir she'riyatida aks etgan adibning falsafiy qarashlari.

39 - mavzu: Jo'sh Malihobodiy (XIX asr). Shoirming she'riyatdagi merosi, she'rlarining mavzusi hindu musulmonlar birligi, vatanparvarlik hamda demokratiya. She'riyatida ishq, falsafa va tasavvuf.

40 - mavzu: Sarguzashtli va tarixiy romanlar: Sarshar Sharar (1847 - 1902) ijodiy merosi. Uning nasriy asarlarida ko'tarilgan etakchi goyalar va obrazlar.

41- mavzu: Adabiyotda romantik oqimning paydo bo'lishi. Rabindranat Tagor. Tagorning faol siyosiy faoliyati va ijodi. Rabindranath Tagore (1861-1941) Hindiston jamiyatining ijtimoiy va madaniy hayotida Tagorlar oilasining o'rni Tagore ijodi nasrda va nazmda. Tagor asarlatining jahon tillariga va o'zbek tiliga tarjimalari.

42 - mavzu: Jayshankar Prasad (1889-1927) nasrnavis. Hind she'riyatidagi romantik yo'nalishlar (Chhayavada davri). "Chhayavada" ning asosiy figuralari. Adib hikoyalarda hind xalqining yashash tarzi, kambag'allik, milliy qadriyatlar tasviri. Yozuvchi asarlarining tili va uslubi.

43-mavzu: Tarixiy roman janri. Rahul Sanskritayanning (1893-1963) tarixiy romanlari. Romanlarda O'rta Osiyo va Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar.

Ushbu kurs zamonaviy nasr bilan bog'lik, ayollar, dalitlar masalalariga bagishlangan, ijtimoiy - madaniy va siyosiy mavzular orqali mustaqillikdan keyingi davr adabiy jarayonini ochib berishi lozim. Darsda asosiy e'tibor matnlarni o'qishga, ularni nazariy jihatdan taxlil qilishga, diskussiyalar olib borishga karatilishi lozim. Ushbu davrni o'rganish uchun hindi tilidagi matnlar (qisqa hikoyalar, novella, sayoxatnomalar va poemalar) tanlanishi lozim. Shu bilan birga ushbu materiallar orqali hind adabiy an'analari tarixini xam o'rganishi lozim. (Laiden universitety)

43 - mavzu: Yashpal romannavis (1903-1976). Yashpal ijodida sotsrealizm. Yozuvchi ijodining o'rganilganligi. Yashpal romanlarining jahon tillariga va o'zbek tiliga tarlimasi.

44 - mavzu: Roman-epopeya janri va Xo'ja Ahmad Abbos (1914-1987) ijodi. Asarlarida aks etgan hayotiy voqealar, milliy-ozodlik harakati, shaxsiyat roli, ijtimoiy-siyosiy muammolar, mustamlakachilarga qarshi inqilobchilar qo'llash g'oyalari kabilarning yoritilishi.

45 - mavzu: Zamonaviy Hindiston nasri Ahmad Nodim Qosimiy (1916-2006) ijodi. Adibning ijod yo'li, davr tavsifi, ijodida badiiy uslub masalasi, oltin muhr, hikoya yozilayapti nomli asarlari. Yozuvchining realistik san'at metodidan foydalanishi. Asarlarida panjob dehqonlari, qashshoq

hayot, qishloq aholisi, bolalar, oddiy insonlar, tasviri.

46- mavzu: Taraqqiyparvarlik harakati. Premchand (1880-1936) hikoyanavis va romannavis. Premchand asarlarida qishloq xayoti, hind milliy qadriyatlarini, dunyoqarashining badiiy in'ikosi. XX asr nasri rivojida adib ijodining tutgan o'rni. Premchand asarlarining boshqa tillarga va o'zbek tiliga tarjimalari.

47- mavzu: Zamonaviy hind adabiyotida psixologik yo'nalish. Jaynendra Kumar (1905-1988) ijodi, uning "Tyagpatr" romani. Romanning etakchi g'oyasi, syujet va kompozitsiyasi hamda personajlari.

48- mavzu: Krishan Chandar romannavis. Yozuvchi romanlarida realistik obrazlar, hind jamiyatining og'riqli muammolarining aks etishi. Adib romanlarining til xususiyatlari. Krishan Chandar asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari.

49- mavzu: Krishan Chandar (1914-1977) tanqidiy realism asoschisi. Adib hikoyalarining hind nasri rivojida tutgan o'rni. Krishan Chandar ijodining O'zbekistonda o'rganilishi.

50-mavzu: Mustaqillik davri hind yozuvchilari: Hindistonda ingliz zabon adabiyot. Mulk Raj Anand (1905-2004) ijodi, ingliz tilidagi asarlarda hind jamiyati muammolari.

51-mavzu: Zamonaviy Hindiston she'riyati. Fayz Ahmad Fayz (1911-1984) va Kayfi Azmi (1911-1984) she'riyati, shoirlar she'riyatining g'oyasi, uslubi va obrazlar tizimi.

52-mavzu: Bir pardali drama va uning rivojlanishi. Vishnu Prabhakar (1912-2009) adabiy merosi, adib ijodida janrlar xilma xilligi. XX asr hindi nasri rivojida Vishnu Prabhakar ijodining o'rni.

53-mavzu: Modernistik oqim. Agey (1911-1987) ijodida modernizm. Adibning "Shatru" hikoyasining ahamiyati.

54-mavzu: Mohan Rakesh (1925-1972) "Yangi hikoya" janri vakili. Adib hikoyalarining g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi va uslubi

55- mavzu: Rajendra Yadav (1929-2013) "Yangi hikoya" janri vakili. Adib hikoyalarida hind ziyolilari obrazi. asarlarining o'yaviy yo'nalishi, til xususiyatlari

56-mavzu: “Yangi hikoya” janri. Kamleshvar (1932-2007) ijodi, yangi hikoya janrining parallel hikoyadan farqli jixatlari va o‘ziga xosligi.

57-mavzu: Psixologik hikoya janri. Mannu Bhandarining (1931-2021) ijodiy merosi. Uning asarlarida kotarilgan asosiy masalalar, obrazlar va uslub masalasi

58-mavzu: XX asr ikkinchi yarmi hind adabiyotida dalitlar masalasi. Omprakash Valmiki ijodida dalitlar masalasining aks etishi.

59-mavzu: Panjob adabiyotida realizm oqimi Amrita Pritam (1919-2005) ijodi, Zulfiya va Amrita Pritamning ijodiy munosabalkari.

60-mavzu: Yangi she‘riyat oqimi vakili Gajanan Muktibodh (1917-1964) ijodiy merosi. Shoir she‘riyatida yangi g‘oyalar, yangi obrazlar va yangi uslub.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

“O‘rganilayotgan mintaqa (Hindiston) adabiyoti” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- Qadimgi Hind Eposlari. Ramayana, Mahabharata eposlari
- Buddaviylik adabiyoti. Jatakalar
- Qadimgi hind ertak va masallari
- Qadimgi hind dramaturgiyasi (Bhasa, Kalidasa)
- Birinchi dramaturglar: va Shudraka
- Roman janrining shakllanishi. Dandin ijodi.
- Qadimgi hind satirasi. Xaribxadra ijodi
- Hindistonda forsiyzabon adabiyot (Amir Husrav Dehlaviy)
- Bhakti adabiyoti (Surdas, Tulsidas, Kabir)
- Hindiston adabiyotining shakllanishi
- Janubiy Hindiston adabiyoti
- Mirza G‘olib she‘riyati va ramziylik
- Ma‘rifatparvarlik adabiyoti (Ozod, Holi)
- Yashpal romanlari
- Tagor realist shoir va yozuvchi
- Hindistonda inglizzabon adabiyot (Mulak Raj Anand)
- Mannu Bhandari hikoyalarinin asosiy masalalari va obrazlari
- Vishnu Prabhakar hikoyalarida hind-musulmon birligi
- “Yangi hikoya” janri (Kamleshvar, Rajendra Yadav, Mohan Rakesh)
- Hind adabiyotida modernizm (Muktibodh, Mannu Bhdari)

IV. Mustaqil ta'lim*

IV.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

“O‘rganilayotgan mintaqa (Hindistont) adabiyoti” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Vedalar va Vedanta
2. Hind satirasi va «Dhurtakhyana» asari
3. Hind ertak va masallari tahlili
4. Ashtachap shoirlari
5. Malukdas ijodida bhakti g‘oyalari
6. Dramaturg Kalidasa
7. Birinchi hind romannavisi Dandin
8. Rabindranath Tagor hikoyanavis
9. Sarojini Naydu asarlarida ayollar muammosi
10. Krishan Chandrning “Ulta vriksh” romani
11. Ageyning modernistik g‘oyalari
12. Hind adabiyotida dalitlar masalasi
13. Yashpalning “Divya” romani tahlili
14. Mannu Bhandari hikoyasining poetikasi
15. Premchand hikoyalarida qishloq xayoti
16. “Yabgi hikoya” yo‘nalishi vakili Kamleshvar

* *Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida o‘zgarishi mumkin.*

IV.2. “O‘rganilayotgan mintaqa (Hindiston) adabiyoti” fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

1. Amir Husrav Dehlaviyning hindi tilidagi asarlari
2. Kabir ijodida insonparvarlik g‘oyalari
3. Tulsidas asarlarida Ram obrazi
4. Sarojini Naydu asarlarida ayollar muammosi
5. Krishan Chandrning “Godan” romani
6. Ageyning “Shekhar ek jeevni” romani poetikasi
7. Tagor ijodida bolalar adabiyoti
8. Yashpalning “Divya” romani tahlili
9. Qishlor xayoti haqidagi hikoyalar
10. Mannu Bhandari hikoyasining poetikasi
11. Vushnu Prabhakar hikoyalarida hind-musulmon birligi masalasi
12. Yashpal hikoyalarida mustaqillik uchun kurash goyalari
13. S.K.Chauhan milliy ozodlik kuchchisi
14. Tagore ijodida bolalar adabiyoti
15. Premchand hikoyalarida qishloq xayoti
16. Amrita Pritam va Zulfiya: ijodiy do‘stlik
17. Kamleshvar hikoyalarida ziyolilar zayotining aks ettirilishi
18. Mirza G‘olib she‘riyatining badiiyat olami

**Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzusi yuqoridagi na'munalarga*

	<p><i>qo'shimcha ravishda fan o'qituvchisi va talabaning xohish-istagiga ko'ra fan doirasida o'zgartirilishi mumkin.</i></p>
3.	<p><i>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Hindiston tilida yaratilgan badiiy asar ustida ishlash, matnning uslubiy jihatlarini va xususiyatlarini haqida tasavvurga ega bo'lishi; - matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlarini tadqiqi; - matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslub masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish bilishi va ulardan foydalana olishi; - matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlarini; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; so'z yasalishi masalalari yuzasidan ko'nikmalariga ega bo'lishi; <p>matnning sintaktik xususiyatlarini; matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslub masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish malakasiga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. देवेन्द्र चौबे. आधुनिक हिंदी साहित्य में दलित विमर्श। दिल्ली, 2009. (Devendr Chaubey. Zamonaviy hind adabiyotida dalitlar muammosi, Dehli, 2009) 2. Muxibova U.U. Hind adabiyoti (qadim va o'rta asrlar). darslik T., 2008. 3. Muhibova U.U. Hind adabiyoti poetikasi. Darslik. T., 2020 4. Muhibova U.U. Hind folklori. Monografiya. T., 2021

	<p>5. Muhibova U.U. Hind adabiyotida she'riy tizimlar. O'quv qo'llanma. T., 2021</p> <p>6. Xodjaeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. (yangi davr). O'quv qo'llanma. T., 2013</p> <p>7. Xodjaeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. monografiya. T., 2016</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023</p> <p>8. Adabiy turlar va janrlar. (Tarixi va nazariyasiga doir) 3 tomlik. T.1., 2-T.: Fan, 1991, 1992</p> <p>9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. T.: O'zbekiston, 2002</p> <p>10. Umurov N. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: Sharq, 2002</p> <p>11. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T.: O'qituvchi, 1995</p> <p>12. Мухибова У.У. Индийская агиографическая литература. Т., 2008</p> <p>13. Muxibova U.U. Bhakti adabiyoti. T., 2012</p> <p>14. Ходжаева Т.А. Пенджабская литература. Т., 2009</p> <p>15. Ходжаева Из истории газели в литературе на урду. Т., 2014</p> <p>16. Xodjaeva T.A. O'zbekiston-Hindiston adabiy aloqalari. T., 2011</p> <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar:</p> <p>17. Muhibova Ulpatkhon. "Warta" as a genre of Indian hagiographic literature. European Chemical Bulletin. ISSN: 2063-5346. (Q3)</p> <p>18. Mordern literature theori. USA, 2007</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>19. www.hind.com</p> <p>20. www.hindibhasha.com</p> <p>21. www.hindilanguage.com</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 202 <u>5</u> yil "<u>25</u>" <u>iyun</u> dagi <u>21</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202 <u>5</u> yil "<u>28</u>" <u>iyun</u> dagi <u>11</u> - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>U.U.Muxibova – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori</p>

9.	<p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>D.Muxiddinova – Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori; G.Xalliyeva – O‘zDJTU professori, filologiya fanlari doktori</p>
----	--

eds